



**"IPTV INTERAKTIV RAQAMLI TELEVIDENIE" XIZMATINI TAQDIM ETISH VA TARIFIKATSIYALASH QOIDALARI (yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatni amalga oshiradigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lgan shaxslar uchun).**

#### **4.1. Xizmatni taqdim etish va tarifikatsiyalash usuli**

4.1.1. Xizmat tasdiqlangan va amaldagi Tariflar narxnomasi (Tarif rejalariga muvofiq taqdim etiladi).

4.1.2. Ushbu xizmat Asosiy xizmat hisoblanadi va boshqa xizmatlardan alohida taqdim etilishi mumkin.

4.1.3. Ushbu xizmatdan foydalanishda Operator tarmog'i ichida yuzaga keladigan trafik tarifikatsiyalanmaydi.

4.1.4. Ushbu xizmat, Abonent liniyasining uzunligiga qarab, texnik imkoniyatlar mavjud bo'lganda va Operator uskunasidan Abonentning oxirlovchi terminaligacha bo'lgan masofada Abonent liniyasining texnik talablarga muvofiq yetarli darajada ma'lumotlar uzatilishi ta'minlanganda, Operator tarmog'i ichida taqdim etiladi. Abonent liniyasining parametrlari texnik talablarga muvofiq bo'limgan hollarda, xizmat Abonentga taqdim etilmaydi. Abonent, ushbu xizmat bo'yicha shartnoma tuzilgunga qadar arizada ko'rsatilgan manzil va jihozlangan ularish nuqtasigacha liniya parametrlari dastlabki tekshiruvdan o'tkazilishi uchun Operator nomiga ariza berishi kerak. Operator mavjud usullar bilan, shu jumladan tegishli mutaxassisni yuborgan holda, liniyani tekshiruvdan o'tkazadi. Abonent liniyasi talab qilinadigan parametrlarga munosib bo'lganda, Abonentga Operatorning Sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga shartnoma tuzish uchun kelishi lozimligi to'g'risda xabar beriladi.

4.1.5. Ushbu xizmatdan foydalanish uchun Abonent Operatorning taqdim etiladigan kanalida IPTV texnologiyasini qo'llab-quvvatlovchi maxsus Set-Top-Box uskunasiga ega bo'lishi kerak. Kerakli uskuna tasdiqlangan va amaldagi Narxnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq, shartnomani imzolash paytida Operator tomonidan taqdim etiladi.

4.1.6. Abonent to'lovi ushbu xizmatga mos keladigan, Abonent tomonidan tanlangan tarif rejasiga narxidan iborat.

4.1.7. Birinchi yangi ularishda Abonentning shaxsiy hisob raqamidan Ro'yxatga olish to'lovi (aksiyalar davri va sh.k. bundan mustasno) va IPTV Asosiy xizmatining tanlangan Tarif rejasiga va qo'shimcha xizmatlar uchun tariflarga muvofiq miqdordagi Abonent to'lovi yechib olinadi. Bundan tashqari, qo'shimcha surf materiallari (abonent uchastkasiga tegishli surf materiallari – DROP -kabel, UTP -kabel, PPV sim, konnektor va boshqalar) ishlatalganda qo'shimcha to'lov olinishi mumkin.

4.1.8. Yangi Abonent kalendar oyi davomida (1-sanadan boshlab emas) ulanganda, Abonent to'lovining miqdori, joriy kalendar oyining oxirgi sanasigacha ulangan kundan boshlab,

proporsional ravishda qayta hisoblab chiqiladi. Oldindan to‘langan to‘lov va hisobdan chiqarilgan proporsional Abonent to‘lovi o‘rtasidagi farq Abonentning kundalik saldosida aks ettiriladi va undan to‘lov yoki keyingi oyning Abonent to‘lovi uchun foydalanish mumkin.

4.1.9. Abonentning moslashuvchan va ushbu xizmat uchun sozlangan shaxsiy uskunasidan foydalangan holda Xizmatga ulanganda, jismoniy shaxslardan shaxsiy hisob raqamidan Ro‘yxatga olish uchun to‘lov yechib olinmaydi.

4.1.10. Jismoniy shaxslar uchun Abonent to‘lovi hisoblanishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- har bir kalendar oyining birinchi sanasida billing tizimida, Abonent hisob raqamida Abonent to‘loving 100 foizidan ko‘p yoki unga teng miqdordagi summa bo‘lishi sharti bilan, Abonentning shaxsiy hisob raqamidan tarif rejasining har oylik Abonent to‘lovidan 100 foiz miqdoridagi summa avtomat ravishda yechib olinadi.

- Abonentning shaxsiy hisob raqamida yetarlicha mablag‘lar bo‘lmagan holda, Xizmatdan foydalanish tegishli summa to‘langunga qadar, uzib qo‘yiladi va Abonent to‘lovini yechib olish Abonentning shaxsiy hisob raqamiga tegishli summa kelib tushgan kunda amalga oshiriladi. Bunda, to‘lov joriy kalendar oyi davomida amalga oshirilishi kerak, to‘lov oyning qaysi kunida bajarilganidan qat’i nazar, Abonent to‘lovi to‘lov kunidan joriy kalendar oyining oxirgi kunigacha mutanosib ravishda qayta hisoblanadi.

4.1.11. Yuridik shaxslar uchun Abonent to‘lovi hisoblanishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- har bir kalendar oyining birinchi sanasiga o‘tar kechasi billing tizimida Abonent tomonidan o‘tgan oy uchun joriy oyda to‘lov to‘liq amalga oshirilganligi holati tekshiriladi. Agar hisob to‘langan bo‘lsa, u holda kelgusi oy uchun Abonent to‘lovi, Abonent shaxsiy hisobida mablag‘lar mavjudligidan qat’i nazar, to‘liq hajmda qo‘shib hisoblanadi (“Testlash”, “Ixtiyoriy blokirovka”, “Majburiy blokirovka”, “Tugatilgan” yoki “Yopiq” maqomlarida bo‘lgan Abonentlar bundan mustasno). Bunda, to‘lov amalga oshirilgan va xizmatlar yoqilgan kun vaqtidan qat’i nazar, birinchi kun uchun Abonent to‘lovi to‘liq kalendar kun uchun qo‘shib hisoblanadi.

- agarda Abonent oyning birinchi sanasi kechasiga qadar joriy oyda taqdim etilgan hisob bo‘yicha to‘lovni to‘liq amalga oshirmagan bo‘lsa, kelgusi oy uchun Abonent to‘lovi hisoblanmaydi, Abonent moliyaviy blokirovkaga tushadi va to‘lov amalga oshirilgunga qadar xizmatlardan foydalanish imkoniyati ham blokланади (VIP-maqomidagi Abonentlar bundan mustasno).

- agar Abonent yangi oyning o‘rtasida (davomida) avval to‘lanmagan hisob bo‘yicha to‘lovni amalga oshirsa, moliyaviy blokirovka holatida bo‘lgan Abonent faol maqomga o‘tadi, xizmatlarga kirish imkoniyati qayta tiklanadi va bunda, joriy oy uchun Abonent to‘lovi proporsional ravishda hisoblanishi amalga oshiriladi. Bunday hollarda Abonent to‘loving miqdori hisob bo‘yicha to‘lovlar to‘liq amalga oshirilgan kundan boshlab, joriy oyning oxirigacha bo‘lgan kunlar soniga mutanosib ravishda belgilanadi. Hisob bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilgan kun vaqtidan qat’i nazar, birinchi kun uchun Abonent to‘lovi to‘liq miqdorda hisoblanadi.

4.1.12. Operatorning billing tizimi Set-Top-Box orqali yoki Sotuv va xizmat ko‘rsatish ofisida faollashtirilgan Asosiy xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan Qo‘sishimcha xizmatlarni ham avtomat ravishda Abonentning Shaxsiy hisobidan yechib oladi.

4.1.13. Operatorning billing tizimi barcha yozuvlarni va Abonent Shaxsiy hisobidagi barcha hisobdan chiqarishlar tarixini hamda Abonent Shaxsiy hisobiga oxirgi 12 oy ichida hisoblangan pul mablag'larini ham hisobga oladi.

## **4.2. Tarif rejasini almashtirish qoidalari**

4.2.1. Abonentlar tarif rejasini ikkita usul bilan almashtirish imkoniyatiga ega:

**1-usul.** Abonentlarning Sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga dastlabki yozma talabnomasi bo'yicha ish vaqtida, keyingi kalendar oyining boshigacha tarif rejasini almashtirish. Bunday holda tarif rejasni keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan boshlab tanlangan tarif rejasiga almashtiriladi.

**2-usul.** Abonentning Shaxsiy kabinet orqali rasmiylashtirilgan dastlabki talabnomasi bo'yicha tarif rejasini almashtirish. Bunday holda tarif rejasni keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan boshlab tanlangan tarif rejasiga almashtiriladi. Tarif rejasining almashtirilishini bekor qilishni ham keyingi kalendar oyining birinchi sanasigacha amalga oshirish mumkin.

4.2.2. Tarif rejasni almashtirilganidan keyin, balansda yetarli miqdorda mablag'lar bo'lмаган holda, Abonent tomonidan yangi tarif rejasini bo'yicha Abonent to'lovi uchun kerakli summa Abonent Shaxsiy hisobiga kiritilguniga qadar, Xizmatlardan foydalanish imkoniyati blokirovka qilinadi.

4.2.3. Xizmatlarni yangi tarif rejasini bo'yicha faollashtirish Abonentning Shaxsiy hisobida tanlangan tarif rejasini bo'yicha Abonent to'lovini qoplash uchun yetarli summa mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

4.2.4. Tarif rejasini almashtirish operatsiyasi bepul amalga oshiriladi.

## **4.3. Operator tomonidan Abonentni blokirovka qilish va xizmatni o'chirib qo'yish qoidalari**

4.3.1. Jismoniy shaxslar bo'lgan abonentlar uchun Operator Xizmatlaridan foydalanishni blokirovka qilishning quyidagi qoidalari amal qiladi:

4.3.1.1. Xizmatlardan foydalanish imkoniyati kalendar oyining oxirigacha ijobji balansda bo'lgan hollarda taqdim etilishi mumkin.

4.3.1.2. Agar to'liq kalendar oyi davomida Abonentning Shaxsiy hisobidagi saldo Abonent to'lovini to'liq hisobdan chiqarish uchun yetarli bo'lmay qolaversa, keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan boshlab Operatorning billing tizimida Abonent Shaxsiy hisobining maqomi avtomat ravishda "Blokirovka qilingan" maqomga o'tkaziladi.

4.3.1.3. Shaxsiy hisobning "Blokirovka qilingan" maqomi Abonent bilan Sharhnomalar holatini aktiv bo'lмаган holatga o'tkazadi va Operatorning billing tizimi ushbu Shaxsiy hisob bilan hech qanday amallarni (shu jumladan hisobdan chiqarishlarni) bajarmaydi va bunda, bog'langan Qo'shimcha Xizmatlardan foydalanish taqiqlanadi.

4.3.1.4. Agar Abonent "Blokirovka qilingan" maqomida bir to'liq kalendar oyidan ko'p vaqt davomida bo'lsa, billing tizimi Abonent Shaxsiy hisobining maqomini "Tugatilgan" maqomiga o'zgartiradi va shu vaqtidan boshlab, Operator Abonent tomonidan Operator uskunasida band qilingan portni bo'shatish huquqiga ega bo'ladi.

4.3.1.5. “Tugatilgan” maqomida bo‘lganda Operator Asosiy xizmat va bog‘langan Qo‘sishimcha xizmatlar bo‘yicha Abonent bilan tuzilgan shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

4.3.1.6. Shartnoma bekor qilinganda, Abonent tomonidan muloqot uchun taqdim etilgan raqamlar bo‘yicha Shartnoma bekor qilinishi fakti to‘g‘risida va Shartnoma amal qilish vaqt davomida Abonentga taqdim etilgan Abonent uskunasini qaytarish zarurligi to‘g‘risida Abonent xabardor qilinadi. Xarid qilingan uskuna qaytarilmaydi.

4.3.1.7. Abonent Shartnomaning amal qilish vaqt davomida taqdim etilgan Abonent uskunasini 30 kalendar kuni ichida qaytarib berishga majbur. Aks holda, uskunani qaytarish masalasi sudga beriladi.

4.3.1.8. Shaxsiy hisoblari “Tugatilgan” maqomda bo‘lgan sobiq Abonentlar eski shartnomalarni tiklay olmaydilar va ular tomonidan Xizmatlarga ulanish istagi bildirilganda, yangi Abonentlar uchun mo‘ljallangan barcha tegishli qoidalarni qo‘llagan holda, ular yangi Abonentlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

4.3.1.9. Agar “Blokirovka qilingan” maqomda bo‘lgan Abonent Xizmatlari yangidan faollashtirilishini xohlasa, joriy oy uchun 100 foiz Abonent to‘loviga teng bo‘lgan summani kiritishi kerak.

4.3.2. Yuridik shaxslar bo‘lgan Abonentlar uchun Operator Xizmatlaridan foydalanishni blokirovka qilishning quyidagi qoidalari amal qiladi:

4.3.2.1. Abonentning joriy vaqtida qarzi bo‘limgan hollarda (ya’ni, oxirgi taqdim etilgan hisob-fakturada ko‘rsatilgan butun summa hisob-fakturada belgilangan muddatda to‘langan bo‘lsa), Abonent shaxsiy hisobidagi saldodan qat’i nazar, blokirovka qilinmaydi.

4.3.2.2. Agar bunda, Abonentning joriy vaqtdagi qarzi joriy kalendar oyining oxirgi sanasigacha saqlanib qolgan bo‘lsa, Xizmatlardan foydalanish imkoniyati avtomat ravishda uzib qo‘yiladi, Abonent hisobining maqomi keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan “Blokirovka qilingan” maqomiga o‘tkaziladi. Xizmatlardan foydalanishni faollashtirish Abonent tomonidan joriy vaqtdagi qarzining tegishli summasi to‘langanda, avtomat ravishda amalga oshiriladi.

4.3.2.3. Shaxsiy hisobning “Blokirovka qilingan” maqomi Abonent bilan tuzilgan Shartnoma holatini nofaol holatga o‘tkazadi va Operatorning billing tizimi ushbu Shaxsiy hisob bilan hech qanday amallarni (shu jumladan hisobdan chiqarishlarni) bajarmaydi, bunda, Asosiy xizmat va u bilan bog‘liq xizmatlardan foydalanish blokirovka qilingan bo‘ladi.

4.3.2.4. “Blokirovka qilingan” maqomda bo‘lgan Abonent Xizmatlarini yangidan faollashtirishni istasa, u Abonent to‘lovi va ulangan Qo‘sishimcha xizmatlar bo‘yicha joriy qarzlarini to‘lashi lozim, bunda, Abonent to‘lovi miqdori to‘lov kiritilgan sanadan joriy oyda qolgan kunlar soniga mutanosib ravishda hisoblanadi.

4.3.2.5. Agar yuridik shaxs bo‘lgan Abonent 1 to‘liq kalendar oyidan ko‘p vaqt davomida “Blokirovka qilingan” maqomda bo‘lsa, billing tizimi Abonent Shaxsiy hisobining maqomini “Tugatish” maqomiga o‘zgartiradi. Operator “Tugatish” maqomida bo‘lgan Abonent bilan Asosiy xizmat va bog‘langan Qo‘sishimcha xizmatlar bo‘yicha tuzilgan Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega.

4.3.2.6. Yuridik shaxs bo‘lgan Abonentning Operator Xizmatlaridan uzib qo‘yilishi va u bilan Shartnomaning bir tomonlama tartibda bekor qilinishi Abonentni kerakli tarzda rasmiylashtirilgan hisob-fakturalarda ko‘rsatilgan qarzlar summasini to‘lashdan ozod etmaydi.

4.3.2.7. Shaxsiy hisob raqamlari “Tugatilgan” maqomda bo‘lgan sobiq Abonentlar eski Shartnomalarni tiklay olmaydilar va ular Xizmatlarga ulanish istagini bildirganda yangi Abonentlar uchun mo‘ljallangan barcha tegishli qoidalarni qo‘llagan holda, yangi Abonentlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

4.4.1. Abonent o‘z tashabbusi bilan Xizmatlarni o‘chirib qo‘yish istagini bildirganda:

4.4.1.1. Abonent tomonidan o‘rnatilgan tartibda Sotuv va xizmat ko‘rsatish ofisiga yozma ravishda ariza berilishi, shuningdek, Operatorga tegishli bo‘lgan barcha uskunalar to‘liq, but va ishga yaroqli holatda qaytarilishi hamda Xizmatlar uchun mavjud qarzlar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilishi lozim.

4.4.1.2. Abonent tashabbusi bilan Xizmatni o‘chirib qo‘yish ikki variantda amalga oshirishi mumkin:

- keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan;

- Xizmat o‘chirib qo‘yilishi to‘g‘risidagi ariza joriy oyning 25-sanasidan kechiktirmsandan taqdim etilishi sharti bilan, joriy oy davomida. Xizmatni o‘chirib qo‘yish muddati - ariza berilgan paytdan boshlab (Abonent tomonidan ko‘rsatiladi), 5 ish kuni davomida. Bunday holda Abonentning maqomi Abonent tomonidan ko‘rsatilgan sanadan boshlab, “Blokirovka qilingan” maqomiga o‘zgartiriladi.

Bunda, Abonent keyingi kalendar oyining birinchi bo‘lmagan sanasidan uzib qo‘yilgan holda, joriy oy uchun hisobdan chiqarilgan Abonent to‘lovi va qo‘shimcha bog‘langan xizmatlar uchun to‘lov bekor qilinib, qaytarib berilmaydi va qayta hisoblanmaydi.

4.4.1.3. Shartnoma bekor qilingan vaqtida Abonentning Shaxsiy hisobida ijobiy saldo mavjud bo‘lgan holda, Abonent pul mablag‘larining qoldiqlari to‘liq hajmda Abonentga Operator tomonidan ko‘rsatiladigan boshqa xizmat bo‘yicha shaxsiy hisobiga (masalan, qayd qilingan telefoniya xizmatlarining hisobiga va b.) o‘tkazilishi mumkin. Abonentning Shaxsiy hisobidagi pul mablag‘lari naqd pul shaklida qaytarilmaydi. Pul mablag‘lari Abonentning bankdagi hisob raqamiga yoki plastik kartasiga o‘tkazilishi mumkin.